

15. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 28-33.
16. Abdullajonov, D. S. O., & Kasimova, G. K. Q. (2022). DEVELOP A TRAINING PROGRAM FOR YOUNG PROFESSIONALS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS, WHICH IS THE CORE OF CYBERSECURITY. Academic research in educational sciences, 3(6), 185-192.
17. Surayyoxon, M., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1210-1212.
18. Olimov, I. (2023). DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OUR COUNTRY ALONG WITH INTERNET TECHNOLOGY INNOVATIONS. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(2), 210-216.
19. Davronjon, A., & Gulmiraxon, K. (2022). WIDESPREAD INTRODUCTION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE REAL SECTOR OF THE ECONOMY, AS WELL AS IN AGRICULTURE AND WATER MANAGEMENT. World Economics and Finance Bulletin, 9, 167-172.
20. Yuldasheva Nilufarxon A'zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o'g'li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75.
<https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>
21. Yuldasheva, N. A. , Bobojonov, J., Tuxtaboyev , M., & Hakimov , A. (2023). O'ZBEKISTON RESBUPLIKASIDA KICHIK BIZNESNI QURILISH SOHASIDAGI ULUSHI. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS ", 2(2), 122–126. Retrieved from <https://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1289>
22. Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li. (2024). EKOLOGIK SOLIQQA TORTISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISH YO'LLARI. Kokand University Research Base, 931–934. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/260>

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA ISHLASH MASALALARI

Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

i.i.farmonov@kokanduni.uz

Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

lionslar9233@gmail.com (+998999972326)

Annotatsiya: Zamonaviy sharoitda kompaniyada ichki audit xizmatini tashkil etilishi ushbu kompaniya rahbariyatiga samarali va aniq qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida eng shaffof va ishonchli iqtisodiy ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi, yuqori

samarali buxgalteriya tizimini va qoidabuzarliklarning oldini oladi, tarkibiy bo‘linmalar hisobotlarining obyektivligi va ishonchliligini tasdiqlaydi, soliqla tortishni optimallashtiradi.

Аннотация: Создание службы внутреннего аудита в компании в современных условиях позволяет руководству данной компании предоставлять наиболее прозрачную и достоверную экономическую информацию о финансово-хозяйственной деятельности для принятия эффективных и конкретных решений, обеспечивает создание высокоэффективной системы бухгалтерского учета и предупреждения нарушений, подтверждение объективности и достоверности отчетности структурных подразделений, оптимизацию налогообложения.

Abstract: The creation of an internal audit service in the company in modern conditions allows the management of this company to provide the most transparent and reliable economic information about financial and economic activities for making effective and concrete decisions, ensures the creation of a highly effective accounting system and prevention of violations, confirmation of the objectivity and reliability of the reporting of structural units, optimization of taxation.

Kalit so‘zlar: ichki audit, ichki nazoratning tashkiliy shakllari, ichki audit xizmati, ichki audit vazifalari, ichki audit samaradorligi.

Ключевые слова: внутренний аудит, организационные формы внутреннего контроля, служба внутреннего аудита, задачи внутреннего аудита, эффективность внутреннего аудита.

Keywords: internal audit, organizational forms of internal control, internal audit service, internal audit tasks, internal audit effectiveness.

Kirish. Ichki audit boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etib, u ichki nazorat va xatarlarni boshqarish imkoniyatini yaratib hamda kompaniyaning maqsad va vazifalariga qay darajada erishganligini tahlil qilish va baholash elementi va muhim vositasidir.

Ichki audit xizmatini yaratish zarurati "iqtisodiyotning rivojlanish miqyos" bilan bog‘liq muammolardan kelib chiqadi. Kompaniya faoliyati ko‘lami oshgani sayin ma‘muriy apparatga ajratib turadigan boshqaruv nazorat tizimi va faoliyat samaradorligini analitik tahlil etish zarurati kun tartibiga chiqadi. Buni axborot almashinuvi muammosini keltirib chiqaradi va turli boshqaruv bo‘linmalarining bir-biriga zid qarorlar qabul qilish ehtimolini oshishi sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, yuqori rahbariyat tomonidan nazorat qilish qiyinlashadi, bu xatolar va suiiste‘molliklar sonini sezilarli darajada oshiradi.

Ichki audit nima ekanligini yaxshiroq tushunish uchun yuqori boshqaruv tizimini umumiy tarzda tasavvur qilish kerak. Asosiy boshqaruv organi-aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tayinlanadigan, biznesni rivojlantirish strategiyasini ma‘qullaydigan, boshqaruv faoliyatini nazorat qiladigan va buning uchun aksiyadorlar oldida hisobdor bo‘lgan direktorlar Kengashidir.

Direktorlar Kengashi biznes strategiyasini ishlab chiqish va bajarish, operatsiyalarning kunlik bajarilishini ta‘minlash, nazorat protseduralari va ichki qoidalarni o‘rnatish va kompaniya faoliyati natijalari uchun javobgardir. Direktorlar kengashi huzuridagi taftish komissiyasiga hisobdor va belgilangan nazorat tartib-qoidalari amalga oshirilayotganiga va xatarlar yetarli darajada boshqarilayotganiga ishonch hosil qilishi uchun ichki audit tizimi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Audit sohasidagi O‘zbekiston rasmiy normativ hujjatlarida ichki audit quydagilar bilan asoslantiriladi:

ichki auditor — ichki auditor sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

ichki auditor sertifikati (keyingi o‘rinlarda — Sertifikat) — ichki audit xizmatida faoliyat olib borish uchun ichki auditorning professional malakasini tasdiqlovchi hujjat;

malaka imtihoni — talabgorning bilim darajasi ichki auditorga qo'yilgan talablarga mos kelishini tekshirishga yo'naltirilgan, malaka imtihoni komissiyasi tomonidan test sinovi shaklida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkaziladigan imtihon;

talabgor — ichki auditor sertifikatini olishga yoki uning amal qilish muddatini uzaytirishga da'vogar jismoniy shaxs;

xalqaro sertifikat — "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)", "Birlashgan diplomli buxgalterlar (ACA)", "Diplomli ichki auditor (CIA)", "Boshqaruv hisobi bo'yicha sertifikat (CIMA)", "Moliyaviy tashkilotlar diplomli auditori (CFSA)", "Davlat tashkilotining diplomli auditori (CGAP)" va "Riskni boshqarishni baholash bo'yicha diplomli mutaxassis (CRMA)" sertifikati. [1], [2].

Xalqaro ichki auditorlar instituti ichki auditni quyidagicha belgilaydi: "ichki audit-bu tashkilot faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil va obyektiv kafolatlar va maslahatlar berish faoliyati. Ichki audit tashkilotga xatarlarni boshqarish, boshqarish va korporativ boshqaruv jarayonlarini baholash va samaradorligini oshirishda tizimli va izchil yondashuv yordamida o'z maqsadlariga erishishda yordam beradi".[3]

Iqtisodiy adabiyotlarda ichki audit tushunchasi mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan turlicha talqin etiladi.

K.B.Ahmadjonovning so'zlariga ko'ra, "Ichki audit — korxona tomonidan uning o'z faoliyatini tekshirish va baholash maqsadida tashkil etilgan xizmat. Ichki audit korxonaning har bir bo'limi o'z oldiga qo'yilgan vazifalar, reja ko'ratkichlariga qanchalik erisha olayotganini va bu ko'rsatkichga qanchalik samaradorlik asosida erishayotganini tekshiradi va baholaydi."[4].

S.M.Bychkova "ichki audit-bu buxgalteriya hisobi va boshqa nazorat ma'lumotlarini tahlil qilish uchun kompaniya rahbariyati tomonidan tashkil etilgan ichki nazorat tizimining elementi" deb hisoblaydi [5].

A.M.Bogomolov va N.A.Goloshchapov nuqtayi nazaridan "ichki audit xo'jalik yurituvchi subyektda o'z egalarining manfaatlarini ko'zlab tashkil etilgan va belgilangan buxgalteriya tartibiga rioya qilish, mulkni himoya qilish bo'yicha ichki hujjatlari bilan tartibga solinadigan umumiy auditning ajralmas qismi va ichki ishonchli nazorat faoliyati tizimidir" [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning maqsadi ichki auditning mohiyati, kompaniyaning boshqaruv tizimidagi ichki nazorat elementi sifatida o'rni va rolini aniqlash, ichki audit xizmatining funksiyalari va vazifalarini aniqlashtirishdir.

Tahlil va natijalar. Ichki nazorat turli tashkiliy shakllarda mavjud bo'lishi mumkin:

har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yillik hisob-kitoblarni tasdiqlash uchun saylanadigan va qabul qilinadigan doimiy taftish komissiyasi (auditor) shaklida;

ichki audit bo'limi shaklida korxona rahbariga to'g'ridan-to'g'ri hisobot berib boriladigan;

tuzilmaviy-funksional shaklda;

nazorat guruhi shaklida;

ichki audit (outsorsing) o'tkazish uchun auditorlik firmasi bilan tuzilgan shartnoma shaklida.

Nazorat-taftish komissiyasi aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq tuziladi va uning faoliyati asosan u tomonidan tartibga solinadi. Ichki audit xizmati yuqori rahbariyatning qarori bilan tashkil etiladi, u bo'lim uchun vazifalarni belgilaydi va kadrlar masalalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Ichki audit tuzilmasini asoslash va tanlashga tashkiliy-huquqiy shakl, sohaga mansublik, faoliyat doirasi, bozorga o'tish sharoitida harakat erkinligi darajasi, moliyaviy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, axborotni qo'llab-quvvatlash tizimi, xodimlarning malakasi kabi omillar ta'sir qilishi mumkin. Ichki audit xizmati muvaffaqiyatining eng muhim omili uning nisbiy mustaqilligidir. Ichki audit xizmati yuqori rahbariyat, mulkdorlar tomonidan tasdiqlangan Nizom (Ustav) asosida faoliyat ko'rsatadi va ularni axborot bilan ta'minlaydi. Shunday qilib, masalan, moliyaviy direktor rejalashtirilgan mablag'larni ajratishni rad etish orqali audit dasturini amalga oshirishni to'xtatishi mumkin bo'lgan vaziyat mavjud emas.

Qoida tariqasida, ichki audit xizmatining asosiy maqsadi yuqori rahbariyatga korporativ maqsadlarga erishish va biznes standartlariga rioya qilish bo'yicha kompaniya rahbariyatining faoliyati to'g'risida obyektiv va o'z vaqtida ma'lumot berishdir. Bundan tashqari, kompaniyada konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobining ishonchliligi, uning funksional va mintaqaviy bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ham muhimdir.[7]

Xo'jalik yurituvchi subyektni doimiy ravishda o'zgarib turadigan ichki va tashqi sharoitlarga tezkor moslashuvining eng samarali va maqbul mexanizmi bu ichki auditning nazorat va konsalting funksiyalarini kompleks qo'llashdir.

Konsalting funksiyalarini va ichki audit xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya hisobini tashkil etishda, boshqaruv tizimi xodimlariga turli xil moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda, me'yoriy-huquqiy bazaning turli jihatlarida, xodimlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda va boshqa ko'plab muammolarni hal qilishda ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ichki auditning asosiy xususiyatlari: mustaqillik va obyektivlikdir.

Mustaqillik bu holda tashkiliy tushuncha bo'lib, u asosan kompaniyadagi ichki audit xizmatining bo'ysunish darajasi bilan belgilanadi. Obyektivlik ichki auditorning individual sifati – baholash va xulosalarda xolislikni anglatadi.

Ichki audit faoliyatining mohiyati mijozlarga ichki auditning kafolatlari va maslahatlarini berishdan iborat. Shu bilan birga, so'nggi yillarda kafolatlar va maslahatlar berish ko'lamini sezilarli darajada kengaydi va bugungi kunda quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: xatarlarni boshqarish, ichki nazorat, korporativ boshqaruv.

Xulosa va takliflar. Ichki audit xizmati mutaxassislari kompaniya faoliyati samaradorligini oshirishdan manfaatdor: uning bo'linmasi sifatida ichki audit xizmati doimiy ravishda o'z samaradorligini tasdiqlashi kerak. Biroq, ichki audit nafaqat egalari uchun, balki kompaniya rahbariyati uchun ham zarurdir. Menejerlarning vazifasi biznesni boshqarish, belgilangan maqsadlarga eng samarali tarzda erishishdir. Ushbu vazifaning muvaffaqiyati asosan ikki omilga bog'liq:

Menejerda to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bormi?

Qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilishning samarali tizimi mavjudmi?

Biznesni boshqarish kundalik ishlarining bir qismi bo'lgan menejerlar har doim ham vaziyatni obyektiv baholay olmaydilar. Agar menejer barcha jarayonlarni samarali boshqaradi deb hisoblasa ham, u odatda tegishli ma'lumotlarni to'plash va tuzish uchun vaqt va aniq ko'nikmalarga ega emas. Ichki audit, aslida, kompaniya faoliyatining barcha jihatlarini va ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish vositalari to'g'risida ma'lumotlarga ega, shuning uchun ichki audit bilan yaqin hamkorlik boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshiradi. Bu menejerga korxona faoliyatiga yangicha qarashga va boshqaruv qarorlarini amalga oshirish sifatini baholashga yordam beradigan

obyektiv ma'lumot manbai bo'lgan ichki auditdir. O'zbek tashkilotlarida ichki audit bo'limini tashkil etishning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu direktorlar Kengashiga yoki ijro etuvchi organga tashkilotning avtonom bo'linmalari ustidan samarali nazorat o'rnatishga imkon beradi;

ikkinchidan, ichki auditorlar tomonidan o'tkaziladigan maqsadli nazorat tekshiruvlari va tahlillari ishlab chiqarish zaxiralari va rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlarini ochib beradi;

uchinchidan, ichki auditorlar nazorat bilan birga bosh tashkilot, uning filiallari va sho'ba korxonalaridagi moliyaviy, xo'jalik, buxgalteriya va boshqa xizmatlarning mansabdor shaxslariga nisbatan ko'pincha maslahat vazifalarini bajaradilar.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy sharoitlar (moliyaviy inqirozlar) ichki audit uchun o'zining keng imkoniyatlarini namoyish etish va kompaniyalar egalari va menejmentiga zarurligini isbotlash imkoniyatini beradi, shu bilan birga kompaniyalar rahbariyati biznes samaradorligini oshirish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 25.02.2021 yildagi O'RQ-677-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 05.05.2021 yildagi 280-son.
3. Qudbiyev, N. T., Ulug'Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.
4. Audit asoslari. Buxgaltenya hisobi va audit yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darlik / K.B. Ahmadjonov, I.I. Yakubov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.; 2010, - 288 b.
5. Практический аудит / С.М. Бычкова, Т.К. Фомина; под ред. С.М.Бычковой. — 3-е изд., перераб. и доп. — М. : Эксмо, 2009. — 176 с.
6. Богомолов А.М., Голощапов Н. Внутренний аудит. Организация и методика проведения. М.: "Экзамен", 2000. 192 с.
7. Кудбиев, Н. Т. (2021). Актуальность Организации Аудиторской Деятельности На Основе Компьютерных Технологий. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 424-431.
8. Iqboljon o'g'li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'LGHASH OMILLARI. Kokand University Research Base, 746-750.
9. Iqboljon o'g'li, F. I. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI. Kokand University Research Base, 742-745.
10. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
11. Эрматов, А. А., & Муратов, А. А. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 158-165.
12. Akbaralievich, E. A., & Akbarovich, M. A. (2023). Features of the Formation and Accounting of the Authorized Capital in Organizations of Various Forms of Ownership. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 13-20.

13. Nilufarxon, Y. (2024). ECO-FINANCING: UNRAVELING THE IMPACT OF GREEN TAXES ON BUSINESS AND THE ENVIRONMENT. Kokand University Research Base, 979-984.
14. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
15. Davronjon, A. (2020). SUPPORTING THE FOCUS ON LABOR PRODUCTIVITY IN ENTERPRISES. In RECENT SCIENTIFIC INVESTIGATION (pp. 75-79).
16. Abdullajonov, D. S. O., & Kasimova, G. K. Q. (2022). DEVELOP A TRAINING PROGRAM FOR YOUNG PROFESSIONALS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS, WHICH IS THE CORE OF CYBERSECURITY. Academic research in educational sciences, 3(6), 185-192.
17. Kamoldinovna, S. Y. (2023). TURISTIK MAHSULOTLAR VA XIZMATLAR MOHIYATIGA YONDASHUVLAR VA ULARNI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 358-362
18. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. Kokand University Research Base, 906-909.
19. Yulduzxon, S. (2021). Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O'zbekistonda dastur. Muammolar va echimlar Sanoat-4.0 ni joriy etish O'zbekistonda dastur. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000002).
20. Turg'unov, J. A. (2023). MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 85-87.
21. Turg'unov, J. A. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASHDA EIA TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 33-36.
22. Turg'unov, J. (2024). Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(7). Retrieved from <https://yashil-iqtisodiyo-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2487>
23. Turgunov Jasurbek. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF MUHITGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 15–24. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/678>
24. Siddikova Farangizkhon, & Turgunov Jasurbek. (2024). THE INFLUENCE OF IOT ON THE BUSINESS SECTOR'S ECONOMIC LANDSCAPE. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(5), 36–41. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/685>
25. Turgunov Jasurbek, (2024) Innovative methods for assessing the environmental impact of industrial enterprises' development based on the sustainable development goals, Biznes-Ekspert, "Biznes-Daily Media", 49-52
26. Turg'unov, Jasurbek. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH VA ATROF MUHITGA TA'SIRNI KAMAYTIRISHDA XALQARO KELISHUVLARNING

AHAMİYATI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 2. 257-261. 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss10-pp257-261.

27. Turgʻunov, J. A. (2023). Sanoat korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish masalalari. “Nordic” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2025 | Journal article, DOI: 10.69949/nordic-0000009

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN IJTIMOY TARMOQLARNING NAZARIY TAHLILI

Turanboyev Q.B.

Qoʻqon universiteti “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasi oʻqituvchisi

boburturonboyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardan kichik biznesni rivojlantirishda foydalanishning eng samarali yoʻllari oʻrganilgan. Instagram, Facebook, TikTok, LinkedIn, YouTube va Telegram platformalari imkoniyatlari, ulardan muvaffaqiyatli foydalanish usullari tahlil qilingan. Har bir platformaning oʻziga xos xususiyatlari, auditoriyasi va biznes samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Kalit soʻzlar: kichik biznes, ijtimoiy tarmoq, mijozlar, doimiy haridorlar, brendni rivojlantirish.

Аннотация. В данном исследовании изучены наиболее эффективные способы использования социальных сетей для развития малого бизнеса. Рассмотрены возможности платформ Instagram, Facebook, TikTok, LinkedIn, YouTube и Telegram, а также успешные методы их применения. Освещены особенности каждой платформы, их аудитория и роль в повышении эффективности бизнеса. Результаты исследования помогают разработать инновационные подходы для развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, социальные сети, клиенты, постоянные покупатели, развитие бренда.

Abstract. This study examines the most effective ways to use social networks for the development of small businesses. The capabilities of platforms such as Instagram, Facebook, TikTok, LinkedIn, YouTube, and Telegram, as well as successful methods of their application, are analyzed. The unique features of each platform, their audience, and their role in enhancing business efficiency are highlighted. The study results contribute to the development of innovative approaches for small business growth.

Key words: small business, social networks, customers, loyal clients, brand development.

Kirish.

Bugungi raqamli iqtisodiyotda ijtimoiy tarmoqlar kichik biznes subyektlari uchun muhim marketing va mijozlar bilan muloqot vositasiga aylangan. Biroq, koʻplab kichik bizneslar ushbu platformalardan samarali foydalanish uchun yetarli bilim va resurslarga ega emas. Natijada, ular auditoriya bilan aloqani mustahkamlash, sotuvlarni oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda imkoniyatlardan toʻliq foydalana olmaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan notoʻgʻri foydalanish reklama xarajatlarining samarasiz sarflanishi va brend obroʻsining zarar koʻrishiga olib kelishi mumkin.